

BUXORO AMIRLIGI QOZIXONASI VA UNING FAOLIYATI

Abduali Raximov

BuxDU “Tarix va yuridik”

fakulteti 5-1-20-Arl guruh talabasi.

Ismat Naimov “Buxoro tarixi” kafedrası o’qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11258683>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O’rta Osiyo, jumladan, Buxoroi Sharif hududida qozixona binosi qayerda joylashgani va faoliyati haqida qisqacha ma’lumot berib o’tilgan.

Turon zaminida islomning keng yoyilishi natijasida shakllangan qozilik ish yuritish tajribalari sekin-astalik bilan rivojlana borib, aholiga qulaylik yaratish maqsadida maxsus mahkamalar tashkil etila boshlandi. Odatda qozilar o’z faoliyatini olib borish uchun qulay deb bilgan joylarni ixtiyoriy ravishda tanlar edilar. Aksariyat hollarda ular masjid, madrasa yoki o’z uylarida ish olib borgan. Keyinchalik qozilik vazifasining kengayib borishi va lavozim mavqeining oshishi natijasida davlat tomonidan alohida binolar qurilib, maxsus qozixonalar va mahkamalar tashkil etilgan. Ayniqsa, mazkur amaliyot Temuriylar davlati asoschisi Amir Temur tomonidan mamlakatda qonun ustuvorligini ta’minlash maqsadida “Dorul-adl” – qozixonalar faoliyati yo’lga qo’yilgan va bu keyingi milliy davlatchiligimiz tarixida XX asrning 20-yillariga qadar faoliyat yuritgan sulolaviy ma’muriy-boshqaruv tizimida keng qo’llanila borilgan. Burhoniddin Mahmudning fikricha, Buxoro qozilari shahardagi jome’ masjidining bir qismini o’zlariga “mavqe”, ya’ni qarorgoh sifatida tanlagan. Bundan maqsad fuqarolarga qozining ish joyini topishlarida qulaylik yaratish bo’lgan. Boshqa tarafdin esa, mahkama jarayonining masjidlarda bo’lishi huquqiy tizimning o’ziga xos mafkuraviy xususiyatlarini ochib beradi. Chunki islom o’lkalarida jome’ masjidlari muqaddas makon hisoblanib, nizolashayotgan taraflar bu yerda o’zining diniy mas’uliyatini his qilgan va bir-birlariga tuhmat, bo’htonlarni yog’dirishdan ma’lum darajada tiyilgan. Qozilar ham bunday joylarda o’zining “ilohiy mas’uliyatini” his qilib, muammoning adolatli yechimini topishga harakat qilgan.

Buxoro amirligida qozixonalar faoliyati Amir Shohmurod (hukmronlik davri: 1785-1800 yy.) davrida kengayib bordi. Shohmurod mamlakatda adolatni qaror toptirish maqsadida shaxsiy namuna ko’rsatib, Minorai kalon yaqinidagi hovlisida fuqarolarning arz-dodlarini eshitish va ularni hal etish tizimini joriy etdi. Natijada amirlik poytaxti Buxoroda qozixonalar va qozilar tasarrufida bo’lgan hovuz, hammom, bog’, madrasa va masjidlar soni XX asr boshlariga qadar muttasil kengaya bordi. Bunday maskanlardan nafaqat aholi huquqiy maqsadlarda, balki maishiy turmushida, amirlikka tashrif buyurgan nufuzli mehmonlar va elchilarni qabul qilish marosimlarini o’tkazishda ham keng foydalanildi. Shu bilan birga shahar markazida mavqei baland qozilar tomonidan madrasalar bunyod etilib, aholi orasida hurmat topgan qozilar sharafiga ko’chalar nomlandi. Ayrim ko’chalar bugungi kunda ham shu nomlar bilan yuritilib kelinmoqda.

Biz bugungi kunda qisman saqlanib qolgan markaziy qozixona qiyofasini tiklash maqsadida hayot bo’lgan buxorolik nuroniylar xotiralari, ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar, arxiv hujjatlari hamda 2022-2023-yillar davomida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlarining natijalari asosida qozixonaning dastlabki manzarasi qanday bo’lganligi va unda mahkama jarayonlari qanday amalga oshirilganligi hamda qozixonaning tarkibiy qismlari qanday xonalardan iborat bo’lganligi kabi savollarga javob izlashga harakat qildik. Quyida shu

tadqiqotlar natijasiga tayanib, qozixona mahkamasi va unda amalga oshirilgan huquqiy munosabatlar tasvirlanishga harakat qilinadi.

Qozikalon yashagan uy va sud boshqarmasi binosi qozixona deb yuritilgan. Sud ishlari uchun mo'ljallangan maxsus binolar Buxoro shahri hududida mavjud bo'lmay, qozikalon uyi ushbu vazifani ayni paytda bajaragan. Qozilarning uylari loyiha va qurilishi jihatdan u yerda qozixona joylashishi yoki joylashmasligiga bog'liq bo'lmay, an'naviy Buxoro aholisi xonadonlaridan biror bir jihati bilan ajralib turmagan. Biroq, fuqarolarni qabul qilish va ularga huquqiy xizmatlar ko'rsatish hamda huquqbuzarliklarni bartaraf etish uchun tadbirlar o'tkazish kabi talablarga javob bera olgan. Uylarning qurilish uslubi va jihozlanishi Buxoroning barcha darajadagi amaldorlari sinfi uchun amalda bir xil edi. Buxoro boy xonadonlari an'naviy me'morchiligi va joylashuviga qarab ikkiga bo'lingan: tashqi uy (havli berun) va ichki uy (havli durun). Qozikalon hamda boshqa mansabdor shaxslarning uylari ham shunday bo'linish asosida shakllantirilgan. Tarixiy manbalarning dalillik berishicha, Buxoro shahrida bir necha qozixonalar faoliyat yuritib, markaziy qozixona Ark qo'rg'onidan tashqarida Minorai kalonning janubi-g'arbi, Shahrison va Gavkushon mavzolari o'rtasidagi Sharifjon guzarining jarlik yoqasidagi qismida joylashgan. Qozixona joylashgan mavze XVI asrda Mirzoquli guzari deb nomlanib, guzar juda kichik va aholisi ham oz bo'lgan. Guzarda dastlab, faqatgina Qozikalon hovlisi, ya'ni Qozixona bo'lgan. Aholining ko'pchiligi qozixonada turli lavozimlarda, xususan, mirzalik va mulozimlik vazifalarida ishlagan. Boshqa qismi esa hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullangan. Guzarda 1927-yilda 57 ta xo'jalik bo'lib, unda 285 kishi istiqomat qilardi.

Qozixonaning uchta darvozasi bo'lib, uning markaziy darvozasi fuqarolarni qabul qilish uchun mo'ljallangan. Qozikalon uyining darvozasi ortida ikkita sufa bo'lgan, katta sufada jibachi, mirzoboshi, qorovulbegi unvoniga ega "qirq a'lam" deb nomlangan 40 ga yaqin ulamolar o'tirgan. O'ng tomondagi kichikroq boshqa sufa esa "darbon" (darvozabon) uchun mo'ljallangan. Uning vazifasiga eshik oldida navbatchilik qilib, murojaatchilarni qozikalon oldiga olib borishdan iborat edi. Darboshilarning ba'zilar miroxur darajasiga ega edilar. Darvozaning jihozlanishiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, qozikalon uyining qo'riqchilari va "shabgard"lar favqulodda vaziyatlarda foydalanishi uchun "tavl" (nog'ora) va "naxshin" (zarb tayoq) doimiy ravishda darvoza ustida ilib qo'yilgan. Shabgard ba'zan tavlga naxshin bilan urib turgan. Bu uning uxlamayotgani va sergak turganining ifodasi edi. Qozixonaning markaziy darvozasi hech qachon yopilmagan. Agarda uni yopishganda ham, bu uzoq muddatga cho'zilmagan. Bundan asosiy maqsad amirning qarorlarini va turli rasmiy shoshilinch xatlarini kechiktirmasdan qabul qilish bo'lgan. XIX asrga oid Buxoro qozixonasi uchta hovliga bo'lingan va ularning har biri alohida vazifani bajarish uchun mo'ljallangan:

Birinchi hovli qabulxona, mahzarxona (hujjatxona), aminaxona (amin xonasi), mutavallixona (ish boshqaruvchilar xonasi), muftixona, mahramxona (yordamchilar xonasi) va qozilik hujjatlari rasmiylashtiriladigan boshqa xonalardan iborat bo'lgan. Shuningdek qo'shbegi, devonbegi, rais, mirshabboshi va Yangi Buxorodagi (Kogon) Rossiya siyosiy ayg'oqchiligi idorasi bilan aloqa bog'lash uchun telefon bilan jihozlangan alohida xona ham mavjud bo'lib, unda mirzolar va tarjimon navbatchilik qilib turgan. Bu hovlidan hozirda faqat qozikalon o'tiradigan old ayvonli mehmonxona, mirzoyi daftarxonasi hamda muftixonalar saqlangan. Barcha mahkama jarayonlari aynan shu hovlida olib borilgan.

Darboshi tomonidan olib kelingan fuqaroni dastlab ikki nafar mahram – qozikalonning yaqin yordamchilari qabul qilgan, ular tomonidan dastlabki ishni ko'rish jarayoni amalga oshirilgan.

Muftixonada mufti-a'lam raisligida 15 mulladan iborat "devoni mufti" kengashi maslahatlashgan holatda shariat qoidalariga rioya etib "fatvo", "sijil" va "rivoyat"lar tuzishgan, so'ngra fuqaro qozikalon huzuriga olib borilgan. Qozi odatda o'z kotibi – "mirzo-i kalon" bilan birgalikda kichik deraza orqali fuqarolarni "bo'yro-i shariat" (shariat gilamchasi) ustiga taklif etib, "murofaa" jarayoni (da'vo, qoziga shikoyat bilan murojaat qilish, sud jarayoni)ni amalga oshirgan. Shaxsiy masalalar bo'yicha murofaa etuvchilar esa old dahliz orqali kiritilgan. Xuddi shu hovlida shimolga qaragan besh eshikli, baland ustunli qozikalonning yozgi qabulxonasi ham joylashgan. Odatda, Qozikalon o'z xovlisining janubiy tomonida joylashgan katta mehmonxonada yaqin kishilarni va yuqori darajadagi amaldorlarni qabul qilgan. Mehmonxona shimolga chiquvchi hamda bir vaqtning o'zida deraza vazifasini bajaruvchi 3 ta eshikka ega bo'lib, ular orqali boshqa hovlilarga o'tib turilgan qozikalon mehmonxonasining jihozlanishi juda oddiy, butun oyoq osti "tekin" gilami bilan qoplangan hamda xonaning atrofi devor bo'ylab eni torroq bo'lgan uzun paxta ko'rpachalar – "ko'rpachayi davrixona" to'shalgan. Uchinchi eshikning oldida qozikalon o'tirib, sud jarayonida kichik derazani ochib, sudlashayotganlarning ishlarini kuzatib borgan. Qozikalonning ikki tomonida yostiqlar, orqasida esa devorda osilgan gilamcha bo'lgan. Uning oldida kichikroq xomtaxta bo'lib, unda qalamdon va djuzgir (hujjatlar jildi) bo'lgan. Xomtaxtaning yonida xizmatona uchun mo'ljallangan kichik sandiq saqlangan. Qozikalonning orqasida tokchada kitoblar javoni turgan. Hovlidagi bu mehmonxona oldida pishgan g'ishtdan terilgan katta sufa(terassa)da, uchinchi eshik oldida "bo'yroyi shariat" to'shalgan bo'lib, unda ma'lum bir ish bo'yicha kelgan shaxs qozikalonga yuzlanib, tizzasida tiz cho'kib, kelganining maqsadi haqida axborot bergan. Ushbu jarayon – "murofaa" deb atalgan. Qozixonada aksariyat hollarda fuqarolik ishlari va kichik nizoli vaziyatlar ko'rib chiqilgan. Agarda ish juda jiddiylashib ketsa, unda Ark qo'rg'onida Qo'shbegi huzurida Shayx-ul islom, Raisikalon va Qozikalondan iborat kengashda muhokama qilingan.

Qozixona darvozasidan o'ng yo'lakdagi xonalardan birida, 5-6 nafar mirzolar faoliyat yuritadigan mirzoxona (devonxona) joylashgan. Ulardan biri boshliq sanalib, "mirzoyi kalon" deb yuritilgan va u qorovulbegi yoki miroxur darajasida bo'lgan. Mirzolarning vazifasiga quyidagilar: tashrif buyuruvchilar iltimosi va qozikalonning buyrug'iga ko'ra turli xildagi arizalarni yozish, sud va notarial dalolatnoma va hujjatlarni rasmiylashtirish kirgan. Mirzolar tomonidan barcha turdagi qozilik hujjatlari fors-tojik tilida yozilgan, ushbu til qozixonaning ish yuritish tili edi. Garchi amir va amaldorlarning saroydagi rasmiy tili o'zbek tili bo'lsada, yozuv hamda qozixona va raisxonada tuziladigan barcha hujjatlar fors-tojik tilida bitilgan.

Qozixona kotibi, ya'ni mirzoda maxsus "daftar" bo'lib, unda qozixonadan chiqqan hujjatlar qaydi yuritilgan. Daftarda har bir ishning qisqacha tasnifi yozib borilgan va bu ish darhol emas, balki ish kunining so'ngida umumlashtirilib amalga oshirilgan. Qozilik hujjati (vasiqa, xati ehzor) rasmiylashtirilayotgan paytda matn oxirida, ya'ni qozikalon muhr bosuvchi joyida, odatda, mirzo tomonidan olingan to'lov – "muhrona" haqida belgi qo'yilgan (keyin uncha katta bo'lmagan varaqda mirzo mazkur hujjatning qisqacha mazmunini yozib, jarayon uchun undirilgan muhronaning miqdorini ko'rsatib o'tgan). Qozixonaning tarkibi asosan mulozimlardan iborat edi, ular qozikalonning shaxsiy topshiriqlarini bajarish hamda sud ishlarini yuritish jarayonida barcha ehtimoliy muammolarni hal etish, shuningdek, notarial kelishuvlarni olib borishga javobgar bo'lgan.

Buxoro qozixonasida qozikalonning turli tabaqalardan tarkib topgan 40 nafardan 60 nafargacha mulozimlari mahkama ishlarida faoliyat yuritishgan. Qozixonada

qonunshunoslarning vakili, ya'ni muftining maxsus xonasi bo'lib, har kuni bu xonada 15 nafar Buxoro muftilaridan biri navbatchilik – "muharrir"lik qilgan. Muharrir shariatning turli asoslarini, diniy huquq va qoidalarni yaxshi egallagan kishi hisoblangan. Muharrirlar orasidan qozilar yetishib chiqqan. Bosh muftilar amir yoki qozikalon tomonidan tayinlangan va ular "a'lam" unvoniga ega bo'lgan.

Buxoro qozixonasida merosiy mulkni taqsimlash bo'yicha 12 ta mutaxassis – "tariqachi" ham faoliyat yuritgan. Ular madrasa ma'lumotiga ega bo'lib, shariat asosidagi meros huquqi ilmlaridan juda yaxshi xabardor bo'lgan. Zaruriyat bo'lganda merosxo'rlar o'rtasida meros mulkini taqsimlashda qandaydir ziddiyatlar paydo bo'lsa, fuqarolar qozixonadan yoki shaxsan qozikalondan muammoni qonuniy hal etish uchun huquqiy xizmat ko'rsatuvchi mutaxassis, ya'ni tariqachi berishlarini talab etishi mumkin bo'lgan. Qozixonada "aminona" ishlari bo'yicha "aminonachi" ham joylashgan bo'lib, u qozikalonga bo'ysungan. U alohida hisoblangan muhrona pullarini yig'ish hamda ijarachilar tomonidan topshirilgan tushumlarni qabul qilish va hisobini yuritish bilan shug'ullangan.

Ikkinchi hovlidan asosan turli xizmatlar ko'rsatadigan xona (farroshxona, oshxona, mirzoxona, tahoratxona)lar o'rin olgan. Mirzoxonalarda muharrirlar tomonidan fuqarolarga adliya xizmatlari ko'rsatilgan. Muharrirlar "devoni mufti" tomonidan taqdim etilgan xulosalar asosida sud jarayonida foydalaniladigan va hukm chiqarishga dalillanadigan rivoyatlar tuzgan. Mazkur hovli "mirzoyi ijora" (ijara ishlari bo'yicha kotib) ham o'rin egallagan. U ijaraga berilgan vaqf mulklari hisobini ham yuritgan hamda vasiqa hujjatlarini tuzgan. Ijara hujjatlarini rasmiylashtirish aynan mirzoi ijora orqali amalga oshirilgan.

Uchinchi hovli esa qozikalon oilasi uchun mo'ljallangan, biroq hovlining bu qismi saqlanmagan. Qozixonaning birinchi hovlisi jami uch qavatdan: yuqori qavatda ko'rib chiqqanimizdek ma'muriy xonalar; o'rta qavatida "tagxona", ya'ni yerto'la va quyi qavatda otxona joylashgan. Yerto'la olti xonadan iborat. Ular asosan vaqtincha ehtiyot chorasi sifatida ushlab turiladigan mahbuslar uchun hibsxona vazifasini ham bajargan. Tagxona ostida ot va ulovlarni saqlaydigan "aspxona" o'rin egallagan. Unga "Kavshi Olak" bozori orqali kirish mumkin bo'lgan. Otxonada derezasiz, qorong'u xonalar, ya'ni "saisxona" ham joylashgan. Bunday xonalardan tergov jarayonlarida "sukut saqlovchi" jinoyatchilarni so'roq qilishda foydalanilgan.

Ushbu qozixonada Sadridin, Badridin va Burhoniddinlar sulolaviy Buxoro amirligi qozikalonlari sifatida faoliyat ko'rsatgan. Keyinchalik hovli ularning avlodlari, xususan Qozi Kiromiddin tasarrufiga o'tadi. Xuddi shu hovlida mashhur yozuvchi va adib Jalol Ikromiy voyaga yetadi. Mazkur qozilar avlodiga buxoroliklarning hurmat va ehtiromi baland bo'lib, ular istiqomat qiladigan xonadon (qozixona) aholi o'rtasida "Ibn Bayzo" ("xonadoni Bayzo", ya'ni ravshan, sof, nurli xonadon) nomi bilan ta'riflangan.

Buxoro amirligi qo'shbegisi devonxonasi tegishli hujjatlarning dalolat berishicha, Buxoro amirligida mas'ul yuqori amallarda faoliyat yuritgan mansabdorlarni xizmat uylari bilan ta'minlash shaxsan amir e'tiborida bo'lgan. Qaysiki amaldorning yashash uchun uy-joyga ehtiyoji bo'lsa, amir saroyiga murojaat etishi mumkin bo'lgan. Saroy esa yuqori darajali amaldorlarni xonadonlar bilan ta'minlash maqsadida shahar markazida bir-necha hovlilarga egalik qilar edi. Ular uy-joyga ehtiyoji mavjud bo'lgan mansabdorlarga amalda bo'lgan vaqtida oilasi bilan vaqtincha istiqomat qilish uchun shaxsan amir muboraknomasi asosida taqdim

etilardi. Demak, biz ko‘rib chiqayotgan Buxoro amirligi Qozikalonining hovlisi ham shu tartibga sulolaviy qozilar avlodi tasarrufiga o‘tgan bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas.

Qozixonada hujjatlarning haqiqiyliigi “tamg‘a”, “muhr”, “nishon” lar bilan qonuniylashtirilgan. Rasmiy ishlarda qo‘llanilgan muhr-tamg‘alarning ko‘rinishi bir necha xil – dumaloq, bodom, yoki uch, to‘rt, olti, sakkizburchak shakliga ega bo‘lganligini kuzatish mumkin. Mazkur muhrlar orasida dumaloq shakldagilardan hujjat yuritish amaliyotida ko‘proq foydalanilgan. Qozilar o‘z faoliyatida g‘ayriqonuniy harakatlarga yo‘l qo‘yib, ustilaridan amir nomiga shikoyat tushgan taqdirda, tegishli bo‘lgan muhrlarining yo‘q qilinishi to‘g‘risidagi amir farmoni e‘lon qilingan, bu esa ularning faoliyati rasman tugatilganligini anglatgan¹⁵⁶. Muhrda odatda quyidagilar aks etgan: lavozimi – qozi (ayrim hollarda qozi so‘ziga diniy unvon yoki mansab ham qo‘shib yozilgan. Masalan: qozi sadr, qozi sudur, qozi o‘roq, qozi rais); madrasani tugatganligi to‘g‘risida ma‘lumot – mullo; ismi-sharifi va sana ko‘rsatilgan. Muhrda “xudam al-faqira” (xizmatkorman) jumlasining aks etilishi majburiy sanalgan. Muhrlar nafakat qozilik hujjatining rasmiy tasdig‘i sifatida qo‘llanilgan, balki unda tarbiyaviy ahamiyatga ega hikmatli iboralar ham aks ettirilib, shaxsni to‘g‘ri yo‘lga da‘vatlashni ham o‘zida ifodalagan, bu esa qozilarning ijtimoiy xayotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirishga o‘z navbatida ijobiy xizmat qilgan.

Qozilik mahkamasini yuritishda kotib(mirzo)lik ishlariga alohida ahamiyat berilgan. Qozixonada kotib bilan birgalikda uning yordamchisi “musoid” lavozimidagi shaxs xizmatidan ham foydalanilganini kuzatish mumkin. Ko‘rilayotgan biror ish yuzasidan da‘vo qo‘zg‘atilganda, kotib yoki musoid tomonidan har bir fuqaroning qozi oldiga da‘vo bilan kirish kuni hujjatda qayd etib qo‘yilgan. Da‘vogar qo‘liga berilgan maxsus raqamlangan qaydnoma, hujjat – “ruqo” bilan belgilangan kunda qozilik mahkamasiga kelishi lozim bo‘lgan. Aks holda kirish muddatini o‘tkazib yuborgan va qayta ruqo olishdan boshqa chorasi qolmagan. Qozining oldiga kim, qaysi kuni da‘vo bilan kirishi oldindan qayd daftari “tazkira”ga yozib borilgan. Bu har bir fuqaroning belgilangan muddatda da‘vo ishi yuzasidan qozi huzurida bo‘lishini chalkashtirmaslik va navbatlar sodir bo‘lmasligi uchun amalda qo‘llanilgan. Tazkira alohida hujjatlar saqlanadigan joy – “qimatra”ga qo‘yilgan va unga qat‘iy rioya etishga darboshi mas‘ul qilib belgilangan. 1920-yil 28-avgustdan - 2-sentabrgacha davom etgan qizil armiyaning hujumi oqibatida Buxoroning aksariyat binolari yong‘in ostida qoladi. Buxoroliklar orasida “kichik qiyomat” deb nomlangan mazkur bosqinda qozixonada ham qisman zarar ko‘radi. Buxoro shahrini bosib olgan qizil askarlar hukmdor qarorgohi Arkdagi amir xazinasini, Buxoro qozikaloni, qo‘shbegisi va boshqa saroy amaldorlarining butun boyliklarini talon-toroj qilganlar. Qizillar bu bilan qanoatlanmay, Buxoroning so‘nggi hukmdori Amir Sayyid Olimxon bilan Buxorodan ketishga ulgurmaygan saroy a‘yonlari va amaldorlarni otib tashlaydi. Ularga qarashli bo‘lgan mulklar musodara qilinadi. Albatta, ular orasida Buxoro amirligi markaziy qozixonasi ham bor edi. “Buxoro axbori” gazetasida yozilishicha, Mulla Burhoniddin qozi va boshqa Buxoro amirligida yuqori mansablarda ishlagan qozi, mulla va sudurlar Buxoro favqulodda tekshiruv komissiyasi raisi Hoji Hasan Ahromim o‘g‘lining qarori bilan 1920-yil 6-sentabrda otishga hukm qilingan va hukm o‘sha kundayoq ijro etilgan. O‘sha voqealarning bevosita shohidi bo‘lgan Muhammad Ali Baljuvoni o‘z asarida Buxoroda ulamolarga nisbatan jazo siyosatini quyidagicha ko‘rsatadi: “Miyonsaroy o‘rtasidagi jilovxona darvozasi hujralaridan birida yashiringan Qozikalon (Mir Burhoniddin), Raisikalon va Qozikalonning o‘g‘li Shahobuddinxon Miyonsaroyda asirga olindi. Ular orasida Qozikalonning mirzosi va dabiri (darbor) Mirzo Umar miroxo‘r ham bor edi. Ularni zudlik Buxoroga yubordilar. Bu va boshqa ko‘plab mahbuslar Sho‘ro qonunlari bo‘yicha

gunohkor deb topildi va sud qozilarining hukmi bilan qatl etildilar. BXSР hukumati shakllantirilgach, dastlabki ishlar adliya nazoratini o'rnatishdan boshlanadi. Xususan, 1920-yil 2-oktabrdan boshlab BXSРning Adliya nozirliги tomonidan shahar va tumanlarda qozixonalar tashkil etilib, ularning har birida qozilar tayinlanadi. Buxoro hukumati o'zining aholiga birinchi murojaatnomasida eski qozixonalar faoliyati tugatilgani va uning o'rnida xalq sudlari (xalq qozixonalari) tashkil etilgani, tan jazolarini qo'llash man etilgani, shuningdek, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi hamda jinsidan qat'iy nazar barchaning qonun oldida tengligini e'lon qiladi.

1921-yil 18 – 23 sentabrda Butunbuxoro xalq vakillarining II qurultoyida 79 moddadan iborat BXSР Konstitutsiyasi qabul qilinadi. BXSР Markaziy Ijroiya Qo'mitasining qaroriga ko'ra, adliya nozirliги tarkibida 1922-yil noyabrda prokuratura bo'limi faoliyati yo'lga qo'yiladi. Shunday qilib, ko'hna Buxoroda asrlar davomida amirlik tizimida mavjud bo'lgan qozilik mahkamasi faoliyatidan birdaniga voz kechilmay, 1924-yilga qadar saqlab qolindi. 1925-yil 13 – 17 fevralda Buxoroda maxsus qurilgan Xalq uyida Butuno'zbek [O'zbekiston SSR] Sovetlarining I ta'sis qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy tomonidan 17-fevralda "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil topishi to'g'risida Deklaratsiya" qabul qilindi. Deklaratsiya O'zbekiston SSR tashkil topganligini qonunan rasmiylashtirdi. Yangi tashkil etilgan hukumat tomonidan masjidlar, eski usul maktablari, madrasalar, qozixonalar yopib qo'yildi, vaqf mulklari va qozilik sudlari tugatildi, uning o'rniga sovet sudlari tashkil etildi. Biroq aholi asrlar davomida shariat qoidalarini jamiyatning barcha munosabatlarini huquqiy tartibga soluvchi asosiy qomus sifatida bilganligi va ko'nikma hosil qilganligi sababli, qozixonalarga murojaat etishlari davom etib turdi. Agar 1925-yilda respublika (O'zbekiston)da 87 ta qozilik sudlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1927-yilda ular soni 17 tani tashkil etdi. 1928 yil bahorida ular milliy huquq instituti namunasi sifatida butunlay tugatildi. Rasman O'zbekistonda qozi unvoni bilan faoliyat yuritgan so'nggi shaxs – taniqli din va jamoat arbobi, muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon (1908 – 1982) sanaladi. Eshon Boboxon O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy nazorati boshqarmasi tashkiliy qo'mitasida bosh kotib (1942 – 1943), boshqarma raisining o'rinbosari (1943 – 1957), O'zbekiston qozisi (1943 – 1957), boshqarma raisi va muftiy (1957 – 1982) lavozimlarida faoliyat yuritgan. Buxoro amirligining Qozixonasi o'z faoliyatini huquq instituti sifatida tugatgach, hovli Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati tasarrufiga olinadi. Ushbu binoda 1922 yilda Fayzulla Xo'jayevning ko'rsatmasi bilan xorijdan uskunalar keltirilib, pul ishlab chiqarish fabrikasi tashkil qilinadi. Uzoq yillar Buxoro viloyat matbuotida xizmat qilgan N.Naimovning o'z avlodlariga qoldirgan xotira kitobida qayd etilishicha, F.Xo'jayev tomonidan tashkil etilgan pul chiqarish fabrikasi aynan biz tahlil qilayotgan Sharifjon guzarida joylashgan qozikalonning sobiq mahkamasida o'z faoliyatini boshlaydi. Keyinchalik qozixonada Telman nomli artel (tikuvchilik korxonasi) ish boshlagan, u boshqa binoga ko'chgandan so'ng esa, bu yerda xotin-qizlar bilim yurti joylashgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin bino Buxoro Xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufiga o'tkazilgan va bu joyda 2016 yilga qadar Buxoro Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini uslubiy ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 12-son "Dilrabo" maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyat yuritib kelgan.

References:

1. Azamat Ziyov. "O'zbek davlatchiligi tarixi": (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) // Mas'ul muharrir B.Ahmedov/ – Toshkent: "Sharq", 2001. – 268 b.

2. Ayniy S. "Asarlar". Sakkiz tomlik. Tom 1. – Toshkent: "Badiiy adabiyot" nashriyoti, 1963. – 256 b.
3. Ayniy S. "Namunai adabiyoti tojik". – Moskva: SSSR xalqlarining markaziy nashriyoti, 1926. – 625 sah.
4. Ayniy S. "Tarixi inqilobi Buxoro". – Dushanbe: Adib, 1987. - 240 sah.
5. Ayniy S. "Qisqacha tarjimai holim" (N. Mallayev tarjimasi). – Toshkent: Badiynashr, 1960. – 135 b.
6. Ayniy S. "Asarlar". Sakkiz tomlik. Tom 6. Esdaliklar, III qism. – Toshkent: "Badiiy adabiyot" nashriyoti, 1965. – 239 b.
7. Ayniy S. "Kulliyot". Jildli 7. – Dushanbe: Nashriyoti Davlati Tojikiston, 1962. – 644 sah.
8. Ahmad Donish. "Me'yor-ut-tadoyyun". O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, asosiy fond (O'zR FA SHI). Inv: 553. - 136 varaq.
9. Ahmad Donish. "Risola yohud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi" / Tarjima, izohlar va kirish so'zi muallifi Qiyomiddin Yo'ldoshev. – Toshkent, 2014. – 144 b..

